



## ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

## RELIGIOUS RADICALISM AND WAYS TO COUNTER IT

*Zafar Khayrullayev**Independent Researcher, National University of Uzbekistan**Email: [zafarkhayrullaev72@gmail.com](mailto:zafarkhayrullaev72@gmail.com)**Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** religion, radicalism, extremism, political culture, strategy, prevention, rehabilitation, security.

**Abstract:** This article analyzes the growing negative impact of religious radicalism and the political culture and ideological foundations of countering the radicalization of religious ideas in the modern era, and reveals modern preventive mechanisms for countering radicalization.

**Received:** 17.04.26**Accepted:** 18.04.26**Published:** 19.04.26

## DINIY RADIKALIZM VA UNGA QARSHI KURASH YO'LLARI

*Zafar Xayrullayev**O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi**E-mail: [zafarkhayrullaev72@gmail.com](mailto:zafarkhayrullaev72@gmail.com)**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** din, radikalizm, ekstremizm, siyosiy madaniyat, strategiya, profilaktika, rehabilitatsiya, xavfsizlik.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy davrda diniy radikalizmning ortib borayotgan salbiy ta'siri va diniy g'oyalarining radikallashuviga qarshi kurashning siyosiy madaniyat va mafkuraviy asoslari tahlil qilinadi va radikallashuvga qarshi kurashning zamonaviy profilaktik mexanizmlari ochib beriladi.

## РЕЛИГИОЗНЫЙ РАДИКАЛИЗМ И ПУТИ БОРЬБЫ С НИМ

*Зафар Хайруллаев**Независимый исследователь**Национальный университет Узбекистана**Электронная почта: [zafarkhayrullaev72@gmail.com](mailto:zafarkhayrullaev72@gmail.com)*

Тошкент, Ўзбекистон

---

### О СТАТЬЕ

---

<p><b>Ключевые слова:</b> религия, радикализм, экстремизм, политическая культура, стратегия, профилактика, реабилитация, безопасность.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В данной статье анализируются растущее негативное влияние религиозного радикализма и политико-культурные и идеологические основы борьбы с радикализацией религиозных идей в современную эпоху, а также раскрываются современные профилактические механизмы борьбы с радикализацией.</p>
--	--

---

**Kirish.** Insoniyat hayotida din alohida o‘rin tutadi. Dunyoda minglab diniy e‘tiqodlar, konfessiyalar, an‘anaviy va jahon dinlari mavjud. Ularning tashqi ko‘rinishi, jamiyatga ta‘siri, ichki qonunlari, o‘zaro munosabatlari, dunyo va mahalliy siyosatga ta‘siri, boshqalar tomonidan tan olinishi yoki tan olinmasligi bir-biridan farq qiladi va o‘ziga xos muhim xususiyatlarga ega. Dinning insonni ezgulikka, birodarlikka tarbiyalovchi jihatlari ko‘p. Lekin shunday guruhlar yoki shaxslar ham borki, din qonunlaridan o‘z salbiy maqsadlari yo‘lida foydalanib, ongni manipulyatsiya qilib, mamlakat va jamiyatni chalg‘itmoqchi bo‘ladi.

Insoniyat asrlar davomida diniy radikalizmdan aziyat chekdi. Dinning radikal xususiyatga ega bo‘lishi dinning turi va nomiga bog‘liq emas. Bu dindan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarida foydalanishni niyat qilgan ayrim guruhlar va odamlarga bog‘liq. Dunyodagi vaziyat diniy e‘tiqod va shart-sharoitlardan radikal maqsadlarda foydalanish ekstremizm va terrorizmga olib kelishini ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, jahon sivilizatsiyalari uzoq yillar davomida shakllangan hayotiy qadriyatlar va tarixiy voqealar doirasida shakllanadi. Ko‘rinib turibdiki, asrlar davomida bir joyda shakllangan ma‘naviy qadriyatlar, urf-odatlar, qarashlar osonlikcha o‘zgarmaydi, o‘zgarish bo‘lgan taqdirda ham ma‘lum darajada ma‘naviy va qurolli to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mutlaqo mumkin. Chunki o‘rganilgan va o‘rnatilgan qadriyatlar inson ongi va ijtimoiy hayotidan osonlikcha ajralmasligini ta‘kidlashimiz mumkin.

Jahon tarixida diniy radikalizmning ko‘rinishlari faqat ma‘lum bir dinga nisbatan sodir bo‘lmagan. Diniy ksenofobiya omili sabab bo‘lgan halokatli urushlar ham ko‘p. Unga VI-VIII asrlardagi arablarning bosqinlari, so‘ngra Rekonkistalar, XI-XV asrlardagi Salib yurishlari, O‘rta asrlar oxirida Yevropadagi katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi son-sanoqsiz to‘qnashuvlar, O‘ttiz yillik urush, XX asr 50-yillaridan Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar, islom dinidagi fikrlardagi tafovut va din ichidagi shia va sunniy mazhablar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlar bunga yaqqol dalildir. Oxirgi yillarda Isroil va Eron o‘rtasidagi ziddiyat va bu

bilan bog‘liq ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan diniy adovat va nafrat so‘zlarini keskinlashib borayotganligi diniy radikalizm muammosining o‘ta dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va yondashuvlari tahlil qilingan. Jumladan, Abduqodirov M., Alimov S.K., Karimov A., va boshqalar diniy radikalizmning sabablari, manbalari va unga qarshi kurash metodlari haqida muhim bilimlar bergan bo‘lsa, xorijlik olimlar Emil Dyurkgeym, O. Roy va boshqa olimlar radikalizm turlarini ochib bergan hamda dinni strukturaviy va funksional nuqtai nazardan o‘rgangan. Biroq ushbu va boshqa olimlarning qarashlarida diniy radikalizmga qarshi profilaktik kurash metod va mexanizmlari yetarlicha ochib bermagan va mazkur maqolada bu bo‘yicha muhim taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tahlil, tizimlashtirish, tarixiylik kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan shuningdek, soha tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Din (<arabcha – “e’tiqod”, “ishonch”; lotincha “religio” – “diyonat”, “sig‘inish”, “relegere” – “ortga qaytish”, “religare” – “bog‘lamoq”) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Din muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida shakli, uni idrok etishning o‘ziga xos usuli sanaladi[6, 300], deyish mumkin.

Din bir necha asrlar davomida insoniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va jamiyatda alohida o‘rin tutadigan o‘ziga xos institutdir. Hozirgi kunda dunyoda boshqa diniy oqimlar vakillari tomonidan ko‘plab salbiy ishlar sodir etilmoqda. Nazariy nuqtai nazardan javob beradigan bo‘lsak, ko‘pchilik odamlar uchun din ularning e’tiqodiga asoslanadigan, ijtimoiy-psixologik vazifalarni bajaradigan, o‘ziga xos axloqiy tamoyillarga ega bo‘lgan va qadriyatlar tizimini o‘z ichiga olgan tushunchadir.

Emil Dyurkgeym dinni strukturaviy va funksional nuqtai nazardan o‘rgangan olimlardan biridir. U o‘z tadqiqotlarining birida dinlarni guruhlashning uchta asosiy elementini (birinchisi – barcha dinlar inson tajribasini muqaddas va ibtidoiyga ajratadi, ikkinchisi – barcha dinlar tug‘ilish, o‘lim, muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik kabi insoniy hodisalarni tushunishga harakat qiluvchi e’tiqodlarga amal qiladi, uchinchisi – barcha dinlarda marosimlar bor) haqida gapiradi. Shuningdek, E.Dyurkgeym dinni asosan an’analar tarafdori, davomi sifatida ko‘radi [3, 429].

Radikallashuv – “radiks” – “ildiz” ma’nosini berib, u shaxsni va jamoani ijtimoiy-siyosiy, diniy masalalarda keskin fikr bildirish va biron holatni o‘zgartirish va o‘tmishiga qaytarishga urinish sifatida ta’riflanadi. U faqat diniy sabablarga emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

omillarga ham bog‘liq. Ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy bosim va ta‘limdagi bo‘shliqlar odamlarni ekstremistik qarashlarga olib kelishi mumkin[5, 188].

S.Alimovning yondashuvi yanada chuqurroq: “Radikalizm dunyoviylikni, demokratiyani, inson huquqlarini, plyuralizmni, tolerantlikni rad etadi. U murosani inkor etadi, maksimalistik tafakkurga asoslanadi: ‘yo men, yo dushman’” [2, 116]. Bu fikr siyosiy madaniyat darajasining sustligi radikalizmning mafkuraviy ozuqasiga aylanishini anglatadi. Siyosiy madaniyat kuchli bo‘lgan jamiyatlarda esa radikal g‘oyalar murosaviy muloqot va demokratik institutlar orqali neytrallashadi. Biroq, masalani faqat mafkuraviy manipulyatsiya sifatida ko‘rish yetarli emas.

Diniy g‘oyalar zamonaviy siyosiy kontekstda radikallikni anglatmasligi kerak. Aksincha, siyosiy madaniyatni oshirish orqali diniy g‘oyalarni jamiyatga insonparvarlik, adolat va bag‘rikenglik mezonlarida tushuntirish lozim. Bu esa mafkuraning ijtimoiy ongda “zo‘ravonlik emas, muloqot” asosida shakllanishini ta‘minlaydi. Tanqidiy jihatdan qaralganda, ayrim mualliflar radikalizmga faqat diniy sabablar orqali yondashib, uni mafkuraviy siyosiy inqiroz kontekstida ko‘rmaydi. Bu esa tahlilni biryoqlama qiladi. Aslida esa, diniy radikalizm – bu siyosiy madaniyat va mafkuraviy tanazzulning natijasi sifatida jamiyatda paydo bo‘lishi va rivojlanishi mumkin. Buni sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan yagona mafkuraning tanazzuli natijasida Markaziy Osiyoda xususan O‘zbekistonda turli siyosiy va diniy g‘oyalarning paydo bo‘lishi va kirib kelishida ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, ushbu hodisani faqat diniy ekstremizm sifatida emas, balki siyosiy identitet tanazzuli, normativ tanlov muammosi va ijtimoiy ishonch inqirozi sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan maqbulroq.

Islom dini g‘oyalarining radikallashuvi – bu shunchaki diniy ta‘sir emas, balki siyosiy madaniyat darajasining sustligi, mafkuraviy immunitetning yetishmasligi va siyosiy institutlar faoliyatining zaiflashuvi natijasida yuzaga keladigan siyosiy-madaniy inqirozdir. Uni bartaraf etishning yagona yo‘li – demokratik siyosiy madaniyatni shakllantirish, fikrlar xilma-xilligiga ochiqlikni ta‘minlash va dinni mafkura emas, ijtimoiy axloqiy tizim sifatida qayta talqin qilishdir.

Islomiy g‘oyalarning radikallashuvi ko‘pincha siyosiy madaniyatdagi “zaif bo‘shliqlar”dan oziqlanadi. Xususan, fuqarolik institutlarining sustligi, huquqiy-dunyoviy tartibning noaniqligi, kommunikativ infratuzilmaning zaifligi va usuliy-pedagogik yondashuvlarning eskirganligi radikal qarashlar uchun qulay muhit yaratadi[4, 45-46]. Aksincha, fuqaro jamiyatining mustahkam institutlari, qonuniy asoslangan diniy erkinliklar, ochiq siyosiy muloqot va ta‘lim sohasidagi yangilanishlar mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi[1, 73].

Radikalizmga qarshi kurash uchun “qonuniylik–ma’no–muloqot” uchligi strategiyasidan foydalanish kerak. Siyosiy madaniyat doirasida radikallashuvga qarshi kurashning samaradorligi fuqarolik identiteti, ishonch va hamkorlik kabi qadriyatlarga tayanadi. Agar davlat institutlari va diniy hamjamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat “nazorat–bo‘ysunish” mantiqida qurilsa, jamoatchilik nazarida mafkuraviy izohlar ko‘pincha majburiy diskurs sifatida qabul qilinadi; aksincha, “mas’ul sheriklik” muloqoti yo‘lga qo‘yilganda, diniy talqinlar jamiyatning axloqiy me’yorlari bilan uyg‘unlashadi va siyosiy jarayonlarga ishonchni mustahkamlaydi. Bunda siyosiy madaniyat nafaqat odatlar va rasm-rusumlar, balki me’yoriy ongning tizimi sifatida ishlaydi: fuqarolar adolat va tartibni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki adolatning o‘zi tartibning legitim manbai ekanini tan oladi. Shu nuqtai nazardan, radikallashuvga qarshi choralar “taqiqlash”ga suyanib qolmasdan, ma’naviy-axloqiy izchillikni kuchaytiruvchi ijtimoiy amaliyotlarni — jamoaviy muhokama, mediatsiya, va reintegratsiyani — siyosiy madaniyatning kundalik mexanizmlariga aylantirishi lozim[4, 71-76].

Mafkura g‘oyalar va fikrlar ustida raqobatda jamiyatga alternativ ma’no arxitekturasini yaratish jarayoni sifatida tushunilishi kerak. Qarshi-narrativ ko‘pincha mavjud ekstremistik rivoyatning markazini qisman takrorlab, uni inkor etishdan nariga o‘tmaydi; ma’no arxitekturasi esa sharoitni tubdan o‘zgartiradi — zo‘ravonlikni “maqsadga olib boruvchi yagona yo‘l” sifatida ko‘rsatadigan semantik halqalarni buzadi, “biz–ular” dikotomiyasini yumshatadi va inklyuziv fuqarolik tilini normativ me’yorga aylantiradi. Bu yondashuv mafkuraning kommunikativ qobiliyatini oshirib, diniy ta’limotlarning ijtimoiy-foydali talqinlari uchun hukuki-axloqiy maydon yaratadi[1, 84]. Natijada radikallashuvning psixologik jarayonlari — izolyatsiya, stigma, ma’naviy bo‘shliq — ijtimoiy bog‘lanishlar, ma’noli ishtirok va tan olinuvchi subyektivlik orqali neytrallashadi.

Strategiya dizaynida profilaktika, erta ogohlantirish va rehabilitatsiya bosqichlari alohida dasturlar emas, balki yagona siyosiy-madaniy ekotizimning uzviy bo‘laklari sifatida loyihalanadi. Profilaktika — tanqidiy diniy savodxonlik, raqamli gigiyena, ijtimoiy-emotsional kompetensiya va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan “oldini olish” me’yorlarini kundalik hayotga singdiradi. Erta ogohlantirish — mahalla, ta’lim muassasalari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati o‘rtasida “zaif signallar”ni (yakkalanish, keskin diskurs, zo‘ravonlikka romantik qarash) intersubektiv qayd etish va konstruktiv aralashuv protokollarini ishga soladi. Rehabilitatsiya esa jazodan keyingi ijtimoiy qayta tiklanishni, psixosiy yordamni, mehnat va ta’lim orqali reintegratsiyani tizimlashtirib, “qaytish eshiklari”ni real va izzatli shaklda ochib qo‘yadi. Bu ketma-ketlik siyosiy madaniyatda “jazolash–qo‘rqitish”dan “qo‘llab-quvvatlash–mas’uliyat–isloh”ga semantik burilishni mustahkamlaydi.

Raqamli muhit strategiyaning sinov maydonidir: algoritmik kuchaytirgichlar va e'tibor iqtisodiyoti radikallasuv diskursini tezlashtirishi mumkin, biroq shaffof platforma kelishuvlari, media savodxonlik va ijtimoiy tarmoqlar etikasi orqali ushbu dinamikani ijobiy tomonga burish ham mumkin. Siyosiy madaniyat nuqtai nazaridan bu — onlayn maydonni jamoat manfaatiga xizmat qiladigan “axborot umumiyli”ga aylantirish demakdir: manipulyativ kontentni kamaytirish, dalillash me'yorlarini oshirish, ko'p ovozli muhokamani qo'llab-quvvatlash va platformalar bilan ijtimoiy bitimlar orqali hisobdorlikni ta'minlash. Mafkura jihatidan esa raqamli intervensiyalar “yopiq sektant diskurslari”ni ochiq muloqotga chiqarib, ekstremistik rivoyatning “sirli jozibasini”ni pasaytiradi, dalil va axloqiy asosga tayanadigan muqobil ma'noni ko'rinadigan qiladi.

Institutsional darajada mahalla, ta'lim tizimi, diniy idoralar, OAV va sud-huquq organlari o'rtasida “ko'prik roli”ni bajaradigan integratsion mexanizmlar zarur. Mahalla ijtimoiy kapital va o'zaro yordamning tabiiy konteyneri bo'lib, ishonchni qayta tiklashda beqiyos; ta'lim tizimi tanqidiy fikrlashni “normativ kompetensiya”ga aylantiradi; diniy muassasalar talqinning mas'ul me'yorlarini belgilaydi; OAV esa diskursiv adolatni, ya'ni turli subyektlar ovozining adolatli ulushini kafolatlash orqali mafkuraviy maydonda muvozanat yaratadi. Sud-huquq tizimi bu hamkorlikni huquqiy me'yorlar bilan mustahkamlab, “qonun ustuvorligi—inson qadr-qimmatini” dialektikasini amaliyotda uyg'unlashtiradi. Bunday ko'p darajali boshqaruv, siyosiy madaniyatda “ustma-ust institutlar” raqobatini emas, “tarmoqlangan hamkorlik”ni normaga aylantirishning sharti hisoblanadi.

Baholash va monitoring strategiyaning nafaqat byurokratik, balki mafkuraviy ishonchliligini ham ta'minlaydi. Natijaviylik indikatorlari zo'ravonlik holatlarini hisoblash bilan cheklanmasligi, balki ishonch indeksi, ijtimoiy masofa, stigmaning pasayishi, reintegratsiyadan so'nggi retsidivizm koeffitsiyenti, yoshlar ishtiroki va ijtimoiy ko'ngillilik darajasi kabi siyosiy madaniyat o'lchovlari bilan to'ldirilishi kerak. Bu indikatorlar orqali strategiya “qo'rquvni pasaytirish”dan “umidni oshirish”ga qaratilgan semantik burilishni ham o'lchaydi; chunki mafkuraviy maydonda ijobiy ma'no ishlab chiqarish — barqaror tinchlikning haqiqiy poydevoridir. Indikatorlarning ochiq e'lon qilinishi va jamoatchilik ishtirokidagi baholash sikli strategiyaning legitimligini ko'paytiradi, siyosiy javobgarlikni kuchaytiradi va o'rganilgan saboqlar asosida moslashuvchan tuzatishlar kiritishga imkon beradi.

Shu tariqa, radikallasuvga qarshi kurashni “muammo–yechim” juftligi bilan emas, “institut–qadriyat–amaliyot” uchligi bilan tushunish va tahlil qilish lozim. Maqsad “ekstremizmga qarshi” markaziy shior yaratish emas, balki ekstremistik narrativlar uchun ijtimoiy-ramziy zaminni toraytiradigan siyosiy madaniyatni barpo etishdir: adolatli imkoniyatlar,

ochiq muloqot, mas'ul sheriklik va ma'naviy izchillik radikallashuv manbalarini quritadi. Shu kontekstdan kelib chiqib, amaliy harakatlar strategiyasi — strategik kommunikatsiya, xulq-atvoriy anglashlar, raqamli muhit etikasi va ijtimoiy xizmatlar paketi — operatsionallashtiriladi; nihoyat, ijtimoiy-siyosiy texnologiyalarning institutsional integratsiyasi hamkorlik mexanizmlari va baholash indikatorlari bilan birga konseptual asosda ishlaydi. Natija sifatida xavfsizlik “tor huquqiy nazorat”dan “keng siyosiy madaniyat”ga ko'chadi va demokratik barqarorlikni ta'minlaydigan mafkuraviy muvozanat tiklanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, diniy radikallikni aniqlash mezonlari sifatida — dinga siyosiy vosita sifatida yondashish, murosasizlik va zo'rvonlikka da'vat, boshqa qarashlarga nisbatan toqatsizlik, davlat va jamiyat barqarorligiga qarshi bo'lgan chaqiriqlarning mavjudligi asosiy belgilardan hisoblanadi. Radikallashuvga qarshi kurashning barqaror samarasi “institut–qadriyat–amaliyot” uchligining sinxronlashuvi va mafkuraviy maydonda barqarorlashtiruvchi ma'no ishlab chiqarilishi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, siyosat uchun uch darajali yo'l xaritasi taklif etiladi: qisqa muddatda — platformalar bilan shaffof kelishuvlar, erta ogohlantirish tarmoqlarini kuchaytirish va reintegratsiya protokollarini standartlashtirish; o'rta muddatda — ta'lim, mahalla va diniy muassasalarda tanqidiy savodxonlik va mediatsiya infratuzilmasini ommalashtirish; uzoq muddatda — siyosiy madaniyatda diskursiv adolat, ijtimoiy adolat va inklyuziv fuqarolik identiteti me'yorlarini institutsionallashtirish. Natijada, xavfsizlik “tor nazorat”dan “keng siyosiy madaniyat”ga ko'chadi, mafkuraviy muvozanat tiklanadi va ekstremistik narrativlar ijtimoiy-ramziy zaminini yo'qotadi, jamiyatda fikrlar xilma-xilligi, diniy bag'rikenglik va barqarorlik ta'minlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov M. Islomdagi mafkuraviy qadriyatlar va zamonaviy xavflar. – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2020. – 128 b.
2. Alimov S.K. Radikallashuv global xavfsizlikka tahdid sifatida: ildizlari va ko'rinishlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – №11. – B. 115–122.
3. Durkheim E. The elementary forms of religious life. N. Y., 1995.
4. Karimov A. Radikallikning siyosiy ildizlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 96 b.
5. Roy, O. Globalized Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press, 2004.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашри, 2002.